

DEMOGRAPHIC PROCESSES AND THE TRANSFORMATION OF THE FAMILY INSTITUTION UNDER THE INFLUENCE OF MODERN SOCIO-ECONOMIC FACTORS IN THE ANDIJAN REGION**Abdullayev M.**

Associate Professor of the Department of Economics and Finance, Andijan State University, PhD in Economics – Academic Supervisor.

Abdulhayev O.

2nd-year student in the Economics program, Faculty of Law and Economics, Andijan State University.

Annotation: This article is devoted to a comprehensive analysis of demographic processes and family dynamics in the Andijan region, particularly focusing on trends in divorce, birth, and mortality rates. Based on official statistical data by districts, it examines the dynamics of family divorces, as well as annual indicators of birth and death rates. At the same time, the socio-economic and demographic factors influencing these processes are thoroughly analyzed. The article highlights the impact of divorces on family stability, child upbringing, and the social environment of society. It also evaluates the effect of birth and mortality rates on the demographic development of the region. In conclusion, practical recommendations are provided aimed at strengthening family relations, supporting young families, and improving the healthcare and social protection systems.

Keywords: Andijan region, demographic processes, birth rate, mortality rate, marriage and divorce, socio-economic analysis, urbanization.

KIRISH

So‘nggi yillarda globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar natijasida jamiyat hayotining barcha jabhalarida, xususan, demografik jarayonlar va oilaviy munosabatlarda sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Aholining turmush tarzi, qadriyatlar va demografik xulq-atvori tobora yangicha shakllanib, bu esa nikoh, tug‘ilish, ajrim va o‘lim kabi ko‘rsatkichlarga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida individualizmning kuchayishi, migratsiya jarayonlarining faollashuvi hamda raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi oilaviy institutning an‘anaviy shakllariga yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda.

“Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini” degan tushuncha bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lsa-da, uning ichki tuzilishi va funksional xususiyatlari sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda. Oila nafaqat demografik jarayonlarning markaziy elementi, balki inson kapitalini shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda muhim institut sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois oilaviy munosabatlar barqarorligi va demografik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Aholining tabiiy harakati – tug‘ilish va o‘lim jarayonlari – hududiy rivojlanishning muhim indikator sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, nikoh va ajrim ko‘rsatkichlari jamiyatdagi ijtimoiy muhit, iqtisodiy barqarorlik va madaniy qadriyatlarning holatini aks ettiruvchi asosiy demografik mezonlardan biridir. Zamonaviy sharoitda ushbu ko‘rsatkichlarga ta‘sir etuvchi omillar qatoriga nafaqat an‘anaviy ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, balki migratsiya, urbanizatsiya, bandlik muammolari, axborot texnologiyalari va sog‘liq bilan bog‘liq xavf omillari ham kirib kelmoqda.

Mazkur tadqiqot Andijon viloyati misolida 2020–2024-yillar davomida demografik jarayonlar, xususan tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajrim ko‘rsatkichlarining dinamikasini kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda hududiy farqlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar hamda zamonaviy demografik tendensiyalar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Ushbu yondashuv

nafaqat mavjud muammolarni aniqlash, balki kelgusida samarali demografik va ijtimoiy siyosatni shakllantirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism.

O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi Andijon viloyati bo'limi tomonidan e'lon qilingan demografik vaziyatga oid hisobotlar viloyat bo'ylab hozirgi kunda umumiy aholi soni 3 394 400 kishini tashkil etadi. Bularning yarmidan ko'p qismi 52,2%, ya'ni 1 771 876 kishini shahar aholisi, qolgan 47,8% , ya'ni 1 622 523 kishini qishloq aholisi tashkil etadi. Umumiy aholining 55,6% qismi mehnatga layoqatli, yoshlar – 32,8%, keksalar esa – 11,6% hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar yildan yilga o'sib bormoqda, aholining yillik o'sish surati esa 2,2%ni tashkil etadi.

Bu ko'rsatkichlar shundan dalolat bermoqdaki viloyat bo'ylab tug'ilishlar sonining yildan yilga o'sib borayotganligi va Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasining demografik jihatdan eng faol hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda aholi sonining yuqori o'sish sur'atlari, asosan, tug'ilish darajasining nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi. 2020-2024-yillar oralig'ida tug'ilishlar dinamikasi tahlili jarayonning o'zgaruvchan, biroq umumiy jihatdan barqaror tendensiyaga ega ekanligini ko'rsatadi. 2020-yil viloyatda tug'ilishlar soni 81 425 nafarni tashkil etgan bo'lib ularning 39 614 tasi qiz bola, 41 811 tasi o'g'il bola bo'lgan. Bu davr demografik faollikning nisbatan yuqori bosqichi sifatida qayd etildi. Bu yilda eng ko'p tug'ilishlar soni Andijon shahrida kuzatilgan 11 607 ta, eng ozi esa Xonobod shahrida 840 ta.

Bu o'sish surati 2021- yilda ham davom etdi va tug'ilishlar soni 84 637 nafarga yetdi, ularni ichida 41 070 tasi – qiz bolalar va 43 567 tasi o'g'il bolalar. 2020-yilga nisbatan o'sish kuzatilgan. Bu holat reproduktiv yoshdagi aholi ulushining yuqoriligi hamda oilalarning demografik xulq-atvoridagi barqarorlik bilan izohlanadi. 2021- yilda Andijon shahri 12 185 ta chaqaloqlar bilan viloyat bo'yicha birinchi o'rinni egallagan. Qolgan Asaka, Shahrixon va Andijon tumanlari keyingi yuqori uchlikni egallagan.

2022-yilda ham o'sish tendensiyasi davom etib, tug'ilishlar soni 86,5 ming nafarga yetgan. Bu davrda viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va aholining yosh tarkibi tug'ilish ko'rsatkichlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu yilga qolgan tumanlarga qaraganda Shahrixon va Buloqboshi tumanlarida tug'ilishlar soni sezilarli darajada oshdi 8,2 mingdan 8,8 mingga va 3 299 tadan 3 709 taga.

2023-yil Andijon viloyatida demografik maksimal nuqtalardan biri sifatida baholanishi mumkin buning sababi shundaki bu yil tug'ilish miqdori sezilarli darajada 4 mingtaga oshdi va 89 400 taga yetdi. Umumiy qiz bolalar soni 43 369ta, o'g'il bolalar soni 46 031 taga yetdi. Oldingi yillardagidek birinchi- Andijon shaxri 16 226ta, Ikkinchi – Asaka tumani 9 095ta, uchinchi - Shahrixon tumani 8 940ta va eng oz tug'ilish esa Xonobod shahrida kuzatilgan.

1-jadval.

2020-2024-yillarda tug'ilganlar statistikasi

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024
Andijon sh.	11 607	12185	13200	16 226	15 694
Xonobod sh.	840	945	1103	908	811
Oltinko'l	4755	5003	4987	3758	3120
Andijon	7057	7595	7324	7210	7673
Baliqchi	5227	5173	5305	5677	5594
Bo'ston	1876	1978	1911	2007	2241
Buloqboshi	3455	3299	3709	3993	3832
Jalaquduq	4565	4638	4773	4927	4637
Izboskan	6268	6389	6362	6609	6486
Ulug'nor	1525	1718	1511	1223	940
Qo'rg'ontepa	5048	5130	5020	5321	5257
Asaka	8682	9406	9049	9095	9157

Marhamat	4361	4721	4662	4822	4681
Shaxrixon	8029	8240	8835	8940	8542
Paxtaobod	5186	5308	5514	5609	5039
Xo'jaobod	2944	2909	3241	3075	2601
Jami	81 425	84 637	86 506	89 400	86 305

2024- yilda esa tug'ilishlar sonida pasayish kuzatilib 86 305 nafarni tashkil etgan bo'lib bularning 44 314 tasi qiz bolalar va 41 991 tasi o'g'il bolalar hisoblanadi. Bu miqdorning asosiy qismi Andijon shahri, Asaka tumani, Shaxrixon tumuni va Andijon tumanlariga tegishli. 2024- yilda Andijon shahrida 15 694 ta, Asaka tumanida 9 157 ta, Shaxrixon tumanida 8 542 ta, Andijon tumanida esa 7 673ta chaqaloqlar tug'ilgan. Bu ko'rsatkichlarning eng kichik qismini Xonobod shahri 811ta va Ulug'nor tumani 940 ta bilan egallagan.

Umuman olganda 2020-2024-yillar oralig'ida Andijon viloyatida tug'ilishlar dinamikasi "o'sish – yuksalish – cho'qqisiga chiqish – qisqa pasayish" ko'rinishida tsiklik tendensiyani namoyon qiladi.

Aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarini tahlil qilishda vaqt davomida ularning o'zgarish dinamikasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, 2020–2024-yillar oralig'ida hududlar kesimida kuzatilgan o'zgarishlarni baholash maqsadida o'sish darajasi kuzatildi. Mazkur ko'rsatkich boshlang'ich va yakuniy yillardagi qiymatlar o'rtasidagi farqni nisbiy ifodalash orqali aniqlab, hududlarda demografik jarayonlarning qanchalik o'sish yoki kamayish tendensiyasiga ega ekanligini ochib berdi.

2-jadval.

Tug'ilishning o'sish darajasi

Hudud	Absolyut o'sish(ta)	Nisbiy o'sish%	Hudud	Absolyut o'sish	Nisbiy o'sish
Andijon sh	4 087	35.2	Izboskan	218	3.5
Xonobod sh	-29	-3.5	Ulug'nor	-585	-38.4
Oltinko'l	-1635	-34.4	Qo'rg'ontepa	209	4.1
Andijon	616	8.7	Asaka	475	5.5
Baliqchi	367	7	Marhamat	320	7.3
Bo'z	365	19.5	Shaxrixon	513	6.4
Buloqboshi	377	10.9	Paxtaobod	-147	-2.8
Jalaquduq	72	1.6	Xo'jaobod	-343	-11.6
Jami	4 800	6.0%			

Andijon viloyatida 2020-2024-yillarda o'lim ko'rsatkichlari.

Aholining tabiiy harakati tarkibida muhim ko'rsatkichlardan biri - o'lim darajasi hisoblanadi. Andijon viloyatida 2020–2024-yillar davomida vafot etganlar sonining dinamikasi hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, sog'liqni saqlash tizimi holati hamda demografik tarkibdagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq holda shakllangan.

2020-yilda Andijon viloyatida vafot etganlar soni 15,797 nafarni tashkil etgan. Bularning asosiy qismi erkak kishilar 8 645tani tashkil etgan, qolgan 7 152 tasi – ayollar hisoblangan. Vafot etganlar miqdori bo'yicha 1- Andijon shahri 2 422, 2- Asaka tumani 1 642 va 3- Andijon tumani 1 523tani tashkil etgan. 2021-yilda ko'rsatkich biroz oshdi va 16,4 ming nafarga yetdi, bu davr global pandemiya bilan izohlanadi. Ya'ni, sog'liqni saqlash tizimiga tushgan yuklama va kasallanish darajasining ortishi o'lim ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

3-jadval.

2020-2024- yillardagi vafot etganlar statistikasi

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024
----------	------	------	------	------	------

Andijon sh	2 422	2 578	3 211	3 111	3 159
Xonobod sh	208	212	140	203	201
Oltinko‘l	916	955	799	816	980
Andijon	1 523	1 493	1 302	1 312	1 664
Baliqchi	967	995	980	924	1010
Bo‘ston	367	356	402	356	388
Buloqbo‘sh	723	666	525	684	832
Jalaquduq	926	937	771	951	1 077
Izboskan	1 180	1 400	1 131	1 153	1 270
Ulug‘nor	274	266	258	257	300
Qo‘rg‘ontepa	938	1 034	804	940	1 066
Asaka	1 642	1 673	1 311	1 477	1 816
Marhamat	901	843	793	834	965
Shahrixon	1 379	1 480	1 306	1 396	1 498
Paxtaobod	902	925	1 108	889	995
Xo‘jaobod	529	596	585	574	594
Jami	15 797	16 409	15 426	15 877	17 815

2024-yilda o‘lim ko‘rsatkichi keskin ko‘tarilishi kuzatildi, umumiy vafot etganlar miqdori 17 815 taga yetdi bularning asosiy qismi esa ayollar tashkil etdi 9 704, erkaklar 8 111. Bu esa o‘lim ko‘rsatkichlarining o‘svuchi tendensiyasini ko‘rsatadi.

Umuman olganda 2020-2024-yillar oralig‘ida Andijon viloyatda vafot etganlar ko‘rsatkichi “o‘sish - qisqa pasayish - barqarorlashish – cho‘qqiga chiqish “ko‘rinishida tsiklik tendensiyani namoyon qildi.

2022-yilda esa vaziyat nisbatan barqarorlashib, vafot etganlar soni 15 426 nafargacha kamaygan. Bu davrda tibbiy xizmatlar sifati yaxshilanishi hamda pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari muhim rol o‘ynagan. Bu rivojlanishlar ko‘p hududlarga ijobiy ta‘sir qildi va o‘lim ko‘rsatkichi kamaya bordi lekin Andijon shahrida vafot etganlar soni 3200 tadan oshishiga olib keldi. Bu yilda Xonobod shaxri 140 ko‘rsatkich bilan shu kungacha bo‘lgan muddat ichida eng minimal darajani ko‘rsatdi.

2023-yilda o‘lim ko‘rsatkichlari biroz oshib, 15,8 ming nafarni tashkil etgan. Ushbu o‘sish asosan aholining qarish jarayoni, surunkali kasalliklar ulushining ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Aholining tabiiy harakati ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda vaqt davomida ularning o‘zgarish dinamikasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, 2020–2024-yillar oralig‘ida hududlar kesimida kuzatilgan o‘zgarishlarni baholash maqsadida o‘sish darajasi ko‘rsatkichi hisoblab chiqildi va namoyish etildi. Bu jadvaldan ko‘rinib turibdiki yillar davomida vafot etganlar miqdori oshib borgan va 12% farqqa yetgan.

4-jadval.

O‘lim miqdorining statistikasi

Hududlar	O'sish darajasi %	Hududlar	O'sish darajasi%
Andijon sh	30.4	Ulug'nor	9.5
Xonobod sh	-3.4	Qo'rg'ontepa	13.6
Oltinko'l	7.0	Asaka	10.6
Andijon	9.3	Marhamat	7.1
Baliqchi	4.5	Shahrixon	8.6
Bo'ston	5.7	Paxtaobod	10.3
Buloqboshi	15.1	Xo'jaobod	12.3
Jalaquduq	16.3	Izboskan	7.6

Tuzilgan nikohlar dinamikasi (2020-2024).

Aholining demografik rivojlanishida nikoh jarayonlari muhim o'rin tutadi, chunki ular bevosita tug'ilish darajasi va oilaviy barqarorlik bilan bog'liq. Andijon viloyatida 2020–2024-yillar davomida tuzilgan nikohlar sonining o'zgarishi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, aholining yosh tarkibi hamda turmush tarzidagi o'zgarishlar bilan izohlanadi.

2020-yilda Andijon viloyatida tuzilgan nikohlar soni 27,7 mingtani tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich pandemiya sharoitlari ta'sirida nisbatan past darajada shakllangan. Hududlar kesimida tahlil qilinganda, nikohlarning taxminan 14,8 mingtasi shahar hududlariga, 12,9 mingtasi esa qishloq joylarida bo'lib o'tgan. Bu davrda cheklovlar sababli ayniqsa qishloq joylarda nikoh marosimlari kamroq miqdorda bo'lib o'tgan.

2021-yilda viloyatda nikohlar soni 26,750 taga yetib, qisqa pasayish qayd etgan. Shundan 14,518 tasi shahar hududlarida, 12,232 tasi qishloq joylarda nikoh tuzilgan. Lekin ba'zi hududlarda o'sish kuzatilgan, ayniqsa, Andijon shahrida 4 031ta, Asakada 2 621ta va Shahrixon tumanida 2 424 nikohlar ro'yxatdan o'tgan.

2022-yilda nikohlar soni 25,8 ming taga yetib, pasayish tendensiyasi davom etgan. Hududiy taqsimotga ko'ra, 13,4ming nikoh shahar hududlarida, 12,4 ming nikoh esa qishloq joylarda qayd etilgan. Bu davrda aholining ijtimoiy faolligi kamayib, yoshlarning oila qurishga bo'lgan intilishi sezilarli darajada pasayishi kuzatilgan. Asaka va Shahrixon tumanlari deyarli bir xil natijani qayd etishgan 2 536 va 2 537 ta.

5-jadval.

Tuzilgan nikohlar dinamikasi (2020-2024).

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	O'sish surati % (2020-2024)
Andijon sh	3 793	4 031	3 905	3 743	3 308	-12.8
Xonobod sh	301	302	298	296	235	-21.9
Oltinko'l	1 672	1 560	1 519	1 518	1 352	-19.1
Andijon	2 586	2 362	2 078	1 914	2 019	-21.9
Baliqchi	1 771	1 768	1 684	1 653	1 523	14.0
Bo'ston	601	597	606	562	590	-1.8
Buloqboshi	1 147	1 235	1 251	1 181	1 098	-4.3
Jalaquduq	1 548	1 564	1 484	1 351	1 262	-18.5
Izboskan	2 147	1 967	1 970	1 948	1 847	-14.0
Ulug'nor	452	458	475	425	376	-16.8

Qo'rg'ontepa	1 737	1 676	1 488	1 537	1 475	-15.1
Asaka	2 944	2 621	2 536	2 549	2 398	-18.5
Marhamat	1 559	1 572	1 456	1 440	1 313	-15.8
Shahrixon	2 719	2 424	2 537	2 473	2 347	-13.7
Paxtaobod	1 759	1 596	1 653	1 577	1 555	-11.6
Xo'jaobod	989	1 017	907	888	778	-21.3
Jami	27 725	26 750	25 847	25 055	23 476	-15.3

2023-yilda nikohlar soni kamayishi 25 mingtagacha tushdi. Shundan 12,7 mingtasi shahar hududlariga, 12,3 mingtasi qishloq joylarga to'g'ri kelgan. Pasayish omillari sifatida yoshlarning nikohga kirish yoshining oshishi, iqtisodiy sharoitlar hamda tashqi migratsiya jarayonlarining ko'payishi sabab bo'lgan.


2024-yil viloyatda nikoh qurishni xohlovchi aholi soni keskin pasayib ketdi va umumiy holatda 23 476 ta yangi oila ro'yxatdan o'tdi. Shundan taxminan 12 mingtasi shahar hududlariga, 11,4 mingtasi qishloq joylarga to'g'ri kelgan. Bu esa nikohlar dinamikasida pasayish surati saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, Shahar hududlarida nikohlar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan bo'lib, bu urbanizatsiya jarayonlari bilan bog'liq holda ifodalanadi.

2020-2024-yillar oralig'idagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'rib chiqilgan davrda Andijon viloyatining barcha hududlarida ko'rsatkichlarning pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Umumiy viloyat miqyosida ko'rsatkich 2020-yildagi 27 725 birlikdan 2024-yilga kelib 23 476 birlikka tushgan, ya'ni umumiy pasayish 15,3% ni tashkil etdi.

Andijon viloyatida nikohdan ajralish holatlarining hududiy va dinamik tahlili (2020-2024-y.)

Oilaviy munosabatlarning mustahkamligi jamiyat barqarorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Yuqorida tahlil qilingan nikohlar sonidagi o'zgarishlar bilan bir qatorda, Andijon viloyatidagi demografik harakatlarning yana bir muhim jihati — bu nikohdan ajralishlar dinamikasidir. 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, viloyatda oila bilan bog'liq bo'lgan salbiy ko'rsatkichlar bir tekis davom etmagan. Viloyat miqyosida ajrimlar 2020-yilda 3 125 ta bo'lib bularning katta qismi Andijon shaxriga 513ta va Asaka tumani 386 ta hisoblangan. Shu darajadan boshlanib, yil sayin o'sish tendensiyasi davom etgan. 2021-yilda deyarli barcha tumanlarda, jumladan, Andijon shahrida 263taga va Izboskan tumanida 126taga sezilarli ko'tarilish qayd etilgan. Ushbu jarayon 2022-yilga kelib o'zining yuqori nuqtalaridan biriga chiqdi. Shu yili Andijon shahrida ajrimlar soni ilk bor mingdan ortdi 1 047 ta, viloyatdagi umumiy ko'rsatkichning beshdan bir qismini tashkil etdi.

Andijon viloyatida ajrimlar darajasi (2020-2024)



1-rasm. Andijon viloyatida ajrimlar darajasi.

2023-yil viloyatning barcha ma'muriy birliklari, ayniqsa yirik tumanlar uchun ajrimlar soni eng yuqori cho'qqiga 5 480 taga yetgan davr bo'ldi. Bu davrda nafaqat shahar markazi, balki sanoatlashgan va aholi zich tumanlarda ham keskin o'sish qayd etildi: Asaka tumanida ko'rsatkich 568 taga, Paxtaobodda 333 taga, Qo'rg'ontepada esa 326 taga yetdi. 2020-yil bilan qiyoslaganda, bu hududlarda ajrimlar soni qisqa 3 yil ichida deyarli ikki barobar ortganini ko'rishimiz mumkin.

Biroq, 2024-yilgi statistika vaziyatning biroz barqarorlashayotganidan dalolat bermoqda. Viloyat bo'yicha umumiy ko'rsatkichning 4 781 taga tushishi deyarli barcha hududlarda, xususan, Baliqchi 268 ta, Bo'ston 124 ta va Jalaquduq 209 ta, va boshqa tumanlarida o'z aksini topdi. Faqatgina Izboskan tumanida 2024-yilda ham o'sish trendi saqlanib qoldi. Aksincha, Ulug'nor tumani 87 va Xonobod shahri 52, besh yil davomida viloyatdagi eng past ajrim ko'rsatkichlarini saqlab qolgan hududlar bo'lib qoldi.

6-jadval.

Ajrimlar darajasi hududlar kesimida (2020-2024)

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024
Andijon	513	776	1047	1031	903
Xonobod	55	66	66	84	52
Oltinko'l	144	216	273	267	243
Andijon	300	369	464	517	432
Baliqchi	129	211	241	277	268
Bo'ston	71	76	108	127	124
Buloqboshi	157	171	213	218	198
Jalaquduq	176	192	212	275	209
Izboskan	216	340	395	418	423
Ulug'nor	42	72	96	95	87
Qo'rg'ontepa	195	232	236	326	243
Asaka	386	384	521	568	511
Marhamat	185	179	261	308	278
Shahrixon	248	293	419	436	386

Paxtaobod	178	216	298	333	263
Xo'jaobod	130	152	163	200	161
Jami	3125	3945	5013	5480	4781

Ajrim va o'lim ko'rsatkichlarining oshishiga sabab bo'layotgan omillar tahlili.

Oilaviy ajrimlarning ijtimoiy-psixologik negizlari. Andijon viloyatida 2020-2024-yillar oralig'ida ajrimlar sonining ortishi bevosita inson omili va jamiyatdagi qarashlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tahlillari shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda yoshlarning oilaviy hayotga ruhan tayyor emasligi, psixologik omillar va uchinchi shaxslarning, xususan, yaqin qarindoshlarning oila ichki ishlariga asossiz aralashuvi birinchi darajali sabab bo'lib qolmoqda. Bu omillar, tumanlarda yosh oilalarning mustaqil qaror qabul qilishiga to'sqinlik qilib, kichik kelishmovchiliklarning ham sudgacha yetib borishiga sabab bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va migratsiya omili. Moliyaviy yetishmovchiliklar va ishsizlik ham ajrimlarning ko'payishiga bilvosita turtki bo'lmoqda. Moddiy qiyinchiliklar oqibatida oila boshliqlarining uzoq vaqt mobaynida xorijda mehnat qilishi, oila a'zolarining bir-biridan uzoqlashishi, samarali muloqotning yo'qligi va hissiy bog'liqlikning uzilishiga olib keladi. Natijada, uzoq vaqt birga yashamaslik va ishonchsizlik (xiyonat) kabi salbiy holatlar ko'payishiga, 2023-yildagi yuqori darajadagi ajrimlar 5 480ta kabi ko'rsatkichlarni keltirib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

O'lim sabablarining statistik va tibbiy tahlili. Hududda o'lim ko'rsatkichlarining o'sish sur'ati (15 877 ta holat bilan) o'rganilganda, o'linga olib keluvchi omillarning tibbiyot jihatidan aniq namoyon bo'ladi. 2024-yil tibbiyotga oid statistikalar shuni ko'rsatmoqdaki eng asosiy xavf omili sifatida qon aylanish tizimi kasalliklari qayd etilgan bo'lib, jami o'lim holatlarining 61,1 foizi aynan shu sababga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, o'simtalar (saraton) kasalliklari 10,8 foiz ko'rsatkich bilan o'lim sabablari tuzilmasida ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Bundan tashqari, aholi salomatligiga nafas olish a'zolari kasalliklari 5,5%, turli darajadagi baxtsiz hodisalar 4,8% hamda yuqumli va parazitar kasalliklar 1,3% ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu raqamlar hududda sog'liqni saqlash tizimi oldiga profilaktika ishlarini, ayniqsa kardiologik va onkologik nazoratni kuchaytirish sog'liqni saqlashga oid chora tadbirlarni ko'paytirishni asosiy vazifa sifatida qo'yish kerak ekanligini qayd etmoqda.

Vaziyatni yaxshilash va salbiy oqibatlarining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar.

Ajrimlarni oldini olish bo'yicha samarali choralar kompleks yondashuvni talab qiladi. Birinchidan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlarini kuchaytirish zarur. Maktablar, kollejlarda va oliy ta'lim muassasalarida oilaviy psixologiya, muloqot ko'nikmalari va konfliktlarni hal qilish mavzulariga bag'ishlangan kurslarni joriy etish yoshlarning oilaviy hayotga ongli ravishda kirishiga yordam beradi. Ikkinchidan, nikohdan oldingi maslahatlar berish amaliyotini kengaytirish lozim. Oila qurish arafasida turgan juftliklarga psixologlar va mutaxassislar tomonidan maslahat berish ularning bir-birlarini yaxshiroq tushunishlariga va ehtimoliy muammolarni oldindan muhokama qilishlariga yordam beradi. Uchinchidan, oilaviy terapiya va psixologik yordam xizmatlarining ommabopligini oshirish muhim. Oiladagi ziddiyatlarni dastlabki bosqichlarda hal qilishga yordam beruvchi bu xizmatlar ajrimlarning oldini olishda samarali vosita bo'lishi mumkin. To'rtinchidan, jamiyatda oilaviy qadriyatlar va mustahkam nikohlar targ'ibotini kuchaytirish kerak. Ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari va madaniyat muassasalari orqali baxtli oilalar misolini ko'rsatish va oilaning ahamiyatini tushuntirish ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Beshinchidan, yosh oilalarga ijtimoiy-iqtisodiy yordamni kuchaytirish, jumladan, uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ish bilan ta'minlash va moliyaviy maslahatlar berish ham ajrimlar sonining kamayishiga xizmat qiladi. Huquqiy sohada esa, oilaviy mediatsiya institutini rivojlantirish va ajrim jarayonida bolalarning manfaatlarini maksimal darajada himoya qilishga qaratilgan qonunchilik normalarini takomillashtirish zarur. Bundan tashqari ajrim ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan Andijon shahri va Asaka kabi tumanlarda

"oila-mahalla-jamiyat" zanjiri asosida bandlikni ta'minlash va migratsiya salbiy ta'sirini kamaytirish chora-tadbirlarini yo'lga qo'yish zarurdir.

Kardiologik va onkologik profilaktika: O'lim ko'rsatkichining qariyb 72 foizini tashkil etuvchi qon aylanish tizimi va o'simta kasalliklarini erta aniqlash uchun hududlarda bepul skrining dasturlari, ko'lamini kengaytirish. Aholi o'rtasida sog'lom ovqatlanish va zararli odatlardan voz kechishni targ'ib qilish orqali kasallanish va erta o'lim holatlarining oldini olish. Baxtsiz hodisalarning katta qismini tashkil etuvchi transport avto-halokatlarini oldini olish choralarini tubdan o'ylab chiqib, yo'lga qo'yish kerak.

Xulosa

Andijon viloyatining 2020-2024-yillardagi demografik holati bo'yicha o'tkazilgan kompleks tahlillar shuni ko'rsatdiki, Andijon hududi aholining tabiiy o'sishi bo'yicha respublikada yetakchi o'rinlardan birini egallagan. Tadqiqot davrida tug'ilish ko'rsatkichlari barqaror dinamikani namoyon etgan bo'lsa-da, 2024-yilga kelib ma'lum darajada pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Shu bilan birga, viloyatda nikohlar sonining 15,3 foizga kamayishi va ajrimlar sonining sezilarli darajada 2023-yilda 5480 taga ortishi jamiyatning ijtimoiy ustuni hisoblangan oila institutiga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

O'lim ko'rsatkichlarining tahlili sog'liqni saqlash tizimida kardiologik va onkologik kasalliklar profilaktikasini tubdan isloh qilish kerakligini tasdiqlaydi, chunki jami o'lim holatlarining 61,1 foizi aynan qon aylanish tizimi xastaliklari bilan bog'liqdir. Viloyatda demografik barqarorlikni ta'minlash va salbiy tendensiyalarni jilovlash uchun yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash, migratsiya oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy uzoqlashishni kamaytirish va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish lozim. Xususan, "oila-mahalla-jamiyat" zanjiri asosida olib boriladigan manzilli chora-tadbirlar Andijon viloyatining kelajakdagi demografik xavfsizligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hetherington, E. Mavis, and Kelly, John. Yaxshi uchunmi yoki yomon uchunmi: Ajralish qayta ko'rib chiqildi. New York: W. W. Norton & Company, 2002.
2. Malcolm, and Kelly, Louise. Yevropada ajrashish: Trendlar, sabablar va oqibatlar bo'yicha yangi tushunchalar. Cham: Springer, 2019. 3.
3. Conger, Rand D., et al. "Iqtisodiy Zo'riqish va Nikoh O'tishlari". Nikoh va Oila Jurnal, vol. 61, no. 3, 1999, pp. 581-593.
4. Whisman, Mark A., et al. "Psixologik bezovtalik va nikoh muammolari." Konsultativ va Klinik Psixologiya Jurnal, vol. 74, no. 2, 2006, pp. 273-286.
5. Goode, William J. Ajrashish andazalarida dunyo o'zgarishlari. New Haven: Yale University Press, 1993.
6. Andijon viloyati Statistika boshqarmasining 2020-2024-yillar ma'lumotlari.